


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olingan:  
№ 1922  
2019-yil

"Tasdiqlayman"  
o'quv ishlari bo'yicha prorektor  
prof. A.Suleymanov  
— — —  
2019-yil



JAHON ADABIYOTI MUAMMOLARI  
fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 -Gumanitar soha  
Ta'lim sohasi: 120000 -Gumanitar fanlar  
Mutaxassislik: 5A120101 -Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot  
yo'nalishlari bo'yicha)

Samarqand - 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** A.Nosirov SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti, f.f.d.

**Taqrizchilar:** Sh. Hasanov SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasi professori, f.f.d.


G.Xoliqulova SamDU "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining 2019-yil -avgustdagi 1-sonli yig'ilishida va filologiya fakulteti uslubiy kengashining 2019-yil -avgustdagi yig'ilishida muhokamadan o'tgan va tasdiglangan,

Kafedra mudiri  Sh. Hasanov

Fakultet dekani  J. Eltazarov

Fakultet uslubiy kengashi raisi:  M. Abdiyev

Kelishildi: O'quv uslubiy  
boshqarma boshlig'i  B. Aliqulov

## KIRISH

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra "Gumanitar" ta'lim sohalarida o'qitiladigan "Jahon adabiyoti muammolari" fani dasturi adabiyotshunoslik va adaviyotda zarur bo`ladigan: XXI asr o`zbek adabiyotida o`z o`rniga ega bo`lgan adiblarning hayoti va ijodi haqida boshlang'ich tushunchalarini o`z ichiga olgan bo'limlaridan tashkil topgan.

### Fanning maqsad va vazifalari

"Jahon adabiyoti muammolari" fani gumanitar fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni I semestrlarda o'rganishadi. "Jahon adabiyoti muammolari" fanining bosh muhim vazifasi, talabalarga "XX asr jahon adabiyoti", "antik davr jahon adabiyoti tarixi", "Modernistik adabiyot", "She`riyat poetikasi" shunga o`xhash qator adabiyot va adabiyotshunoslik fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun zarur bo`ladigan tayanch bilimlarni beradi.

Fan bo'yicha talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar

"Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi", Davlat ta'lim standartida aks etgan talaba bilimlariga qo'yiladigan talablar asosida shakllantirilgan.

Talaba ushbu fan doirsida magistr:

- jahon adabiyoti tushunchasi va uni o'rganish prinsiplarini;
- jahon adabiyoti namunalarining yetakchi kriteriyalarini;
- mif va adabiyot munosabati muammolarini;
- jahon adabiyotini davrlashtirish usullarini;
- qadimgi davr eposi, lirkasi va dramasiga xos nazariy muammolarni;
- o'rta asrlar adabiyoti ma'naviy-madaniy, adabiy-estetik tamoyillarini;
- uyg'onish adabiyotiga doir potik qonuniyatlarni;
- klassisizm estetikasi masalalarini;
- uyg'onish realizmining jahon adabiyotida tutgan o'rnini;
- sentimentalizm, barokko, romantizm adabiyotining mushtarak va farqli jihatlarini;
- realizm va moderninzm adabiyotining o'zak muammolarini ***bilishi kerak***;
- jahon adabiyoti namunalarini nazariy planda tadqiq qilish;
- Sharq va g'arb adabiyoti tipologiyasi muammolarini ilmiy talqin etish;
- eposda mifologik obrazlar mohiyatini belgilay olish;
- uyg'onish adabiyoti poetik xususiyatlarini tushuntira olish;
- italiya, ispaniya, angliya, fransiya, uyg'onishiga xos adabiy qarashlarni farqlay bilish;
- 17-18-asrlar adabiyotiga oid adabiy oqimlar poetik funksiyasini tushuntira bilish;
- 19-20-asrlar Yevropada hukm surgan adabiy qarashlar mazmun-mohiyatini belgilash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;
- qadim shumerlar adabiy manbalarini jahon folklorshunoslik ilmi negizida talqin etish;
- antik davr va o'rta asrlar adabiyotida syujet tipologiyasi masalalarini tushunish;
- uyg'onish davri adabiyotida protoplilikning o'rni masalalarini belgilash;

- “universal odam” tushunchasining uyg’onish davri Yevropa adabiyotidagi ahamiyatini tahliliy idrok etish;
- klassisizm nazariyasini 17-18- asr adabiyotiga tatbiqan qo’llay bilish;
- sentimentalizm va barokko adabiyoti vakllari asarlarini badiiy talqin qilish;
- realistik asarda jahoniy muammolarning aks ettirish qonuniyatlarini bilish;
- modernizmda absurd va ekzistensiya tushunchalarining poetik omillarini anglash va anglatish ***malakalariga ega bilishi kerak.***

### **Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

O’quv jarayoni bilan bog’liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o’qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg’or pedagogik texnologiyalardan va mul’timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o’ylanadiragan muammolarni ular oldiga qo’yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalg qilish.

“Jahon adabiyoti muammolari” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o’z mohiyatiga ko’ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to’laqonli rivojlanishlarini ko’zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog’liq o’qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o’zida mujassam etmog’i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo’g’inlarini o’zaro bog’langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo’naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o’quv jarayonida uning barcha qobiliyati va mkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo’naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o’quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o’z-o’zini faollashtirishi va o’z-o’zini ko’rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishslashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlanirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo’llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo’llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o’quv jarayoniga qo’llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lif, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rghanishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birligidagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "jahon adabiyoti muammolari" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "poinport" dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

### **Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Mazkur fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi – falsafa tarixi, estetika, psixologiya, jahon xalqlari tarixi, adabiyot nazariyasi, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, san'at sosiologiyasi fanlarida o'r ganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog'langan.

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar hamda amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga adabiy-qiyosiy tahlil hamda mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Magistrantlarda jahon adabiyoti muammolari fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, jahon adabiyoti tarixini adabiy davrlar, poetik prinsiplar, eng muhim adabiy figuralar, ma'anaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlarni tahlil qilishga doir muayyan bilimlarni egallash va ularni amaliyatda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita nazariy-poetik, adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

«Jahon adabiyoti muammolari» fanini o'zlashtirishda o'qitishning jahon standartlariga mos, zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari magistr talabalarga mustaqil ta'lif sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniлади. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg'or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

### **Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma`ruza) fanni mavzulari mantiquy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo`yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar to`la qamrab olinadi.

### **Asosiy qism**

#### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

“Jahon adabiyoti” istilohi, jahon adabiyoti tushunchasini tashkil etuvchi omillar va mezonlar. Mif va jahon adabiyoti. Davrlashtirish va adabiy davrlarga xos yetakchi jihatlar va muammolar. Adabiy oqimlar va ijodiy metodlar. Jahon adabiyoti tarixining manbaviy qamrovi va tipologiyasi muammolari.

Jahon adabiyoti faninig predmeti manbalari, omillari. Jahon adabiyotini davrlashtirish. Jahon adabiyotining antik davri: qadim Misr, qadim Hind, qadim Xitoy, qadim turkiy tilli adabiyot, qadim Yunon adabiyoti. Ularning o'zaro mushtarak va farqli jihatlari. Jahon adabiyotini o'rganishning omillari va mezonlari. Jahon adabiyotini o'rganishda umuminsoniylik, milliylik, individuallik tushunchalarining o'rni. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv. Jahon adabiyotini tipologik o'rganishda akademik Konrad, Veselovskiy va prof V.M.Jirmunskiy qarashlari. Zamonaviy adabiyotni tipologik o'rganish muammolari.

### **Jahon adabiyoti tarixida mifologiyaning o'rni**

Mifning badiiy ijodda tutgan o'rni. Mifologik maktab: tarixi, vakillari. Aka-uka Grimmlarning «Nemis mifologiyasi» asari. Myuller asarlarida mifologik talqin. Losevning mifologiyaga doir qarashlari. Mif va falsafa, mif va estetika, mif va din. Mif va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishning muhim asosi sifatida. Mifda xaos va kosmos tushunchalari, ularning badiiy adabiyot tarkibida bajaradigan vazifasi. Mifning shakllari: tabiat, jamiyat, inson, o'tmish, kelajak, yaratilish va inqiroz haqidagi miflar. Mifologik maktab, mohiyati, asoschilari, metodologik prinsiplari. Mifologik asos, mifologik syujet, mifologik unsur tushunchalari. Ayni tushunchalarning adabiy-tarixiy jarayon bilan munosabati. Mifda xaos va kosmos tushunchalari, uning badiiy adabiyot bilan bog'liqligi. Frezer talqinida mif.

### **Antik davr adabiyoti: epos**

Sharq va G'arb adabiyotining Antik davri: qiyos masalasi. Davrga xos adabiyotning geografik hududlari, xronologiyasi. Antik davr eposi: «Ramayana»,

«Maxabxarata», «Iliada», «Odisseya», «Algomish», «Go'ro'g'li», «Manas» asarlarining mazmuni va poetik o'ziga xosliklari. Antik lirika janrlari. She'riy vaznlar masalasi. Antik drama: Esxil, Sofokl, Yevripidlar ijodi. Tragediya, komediya janrlarining antik namunalari. Tragediyaning rivoiy, madaniy-tarixiy va nazariy asoslari. Antik davr didaktikasi. Sharq va G'arb didaktikasining umumiy hamda xususiy jihatlari. Didaktik talqinda shaxs, zamon va axloqiy omillarning o'rni. Gesiodning «Mehnat va kunlar» asari. «Devonu lug'otit turk» asarida didaktik she'rlar. Sharq didaktikasining yetakchi tamoyillari.

### **Antik davr dramasi**

Tragik janr. Tragediyaning rivoiy, falsafiy, psxologik va nazariy omillari. Sofoklning «Shoh Edip» tragediyasida obrazlar tizimi. Edip «gunohi»ning jahon adabiyotshunosligida talqin etilishi. Asarda tragik vaziyatlarning o'ziga xosligi. Yunon komediyasi:komediya va komizm masalasi. Aristofan komediyalari. Attika davri komediyalari: Menandr ijodi. Sharq xalqlari dramasi: o'zbek xalq teatri (masxara) va jahon dramasi.

### **Tarixiy va falsafiy proza**

Gerodotning «Tarix» asarida voqyelikka real yondashuv. Uning o'z davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlardan farqi. Platonning «Qonunlar» kitobida dologning o'rni. «Davlat» asarida jamiyatni toifalash masalalari. Platon asarlarida «Yalag'och daho» obrazi va uning prtipi. Platonning ideal haqidagi tushunchalari. Aristotelning «Metofizika», «Poetika» asari. Mimesis nazariyasi. Adabiy tur va janrlar masalasi. Epos va drama haqida muammolari. Uslub masalasi. Aristotel Forobiylar talqinida. Forobiyning adabiy-estetik qarashlarida G'arb poetika ilmi masalalarining aks etishi.

### **Rim adabiyoti**

Plavt va uning «Xumcha», «Maqtanchoq jangchi» komediyalarida komik obrazlar talqini. «Xumcha» asari va o'zbek adabiyotida xasis obrazi. «Oltin devor»da komiklik va Plavtning «Xumcha» asari. Progopolinik komik obraz sifatida. Vergiliy ijodi. «Eneida» asarining yaratilishida Avgust siyosatining o'rni. Vergiliyning ijtimoiy qarashlari. «Eneida» asarining Gomer ijodi bilan munosabati. Asarning ijtimoiy mohiyati. «Eneida»da mifologik talqin. Ovidiyning «Qahramon ayollar», «Metamorfozalar» asarlarida real voqyelik va mifologik talqin uyg'unligi.

### **O'rta asrlar adabiyoti**

O'rta asrlar adabiyoti tushunchasi, uning Sharq va G'arb adabiyotida tutgan o'rni. O'rta asrlar G'arbiy Yevropa eposi: «Rolland haqida qo'shiq», «Sid haqida qo'shiq», «Nibulunglar haqida qo'shiq» asarlari, ularda Sharq mavzusi talqini. Kelt xalqlari sagalari. Sagalarning yaratilishi: druidlar va flidlar. Sagalar strukturasi, mavzu doirasi. Sagalarda Sharq motivlari. Sagalarning cherkov xodimlari tomonidan yozib olinishi. Sagalarda diniy, xurofiy va magik unsurlar. O'rta asrlar yozma adabiyoti. Lirika va uning mavzular ko'lami. Lirik uslubdagi o'zgarishlar. Kurtuaz lirikasi. O'rta asrlar dramasi, Antik drama bilan umumiy va farqli jihatlari. Bu davr dramasida «Injil» rivoyatlarining o'rni. Sahna talqinidagi o'ziga xosliklar: sahna, dekorasiya, aktyorlar, makon va zamon masalalari. Liturchik tushunchasi.

Misteriyalar. Risar romanchiligi. Risar romanlarining syujet qurilishi. Risar romanlarida sarguzasht va fantaziyaning ahamiyati, ularning folklor asarlari bilan munosabati. Risar romanlarida «uchlik» tushunchasi va uning roman syujeti bilan bog’liqligi.

### **Jahon xalqlari Uyg'onish adabiyoti**

Geografik, xronologik chegaralari. Falsafiy, estetik, poetik, ijtimoiy, ma’naviy omillari. Sharq va G’arb uyg'onishi muammosi: mushtarak va umumiy jihatlari. Ushbu muammoning jahon adabiyotshunosligida talqin etilishi. Sharq va G’arb Uyg'onish adabiyotining mushtarak va farqli jihatlari.

### **Italiyada Uyg'onish davri adabiyoti**

Falsafiy, estetik va ijtimoiy omillar. Falsafiy va ijtimoiy konsepsiylar: «Gumanizm», «universal odam», «xotin qizlar emansipasiyasi» masalalari. Uyg'onish davri adabiyotining estetik va adabiy kriteriyalari: realistik talqin, obrazlar protopliligi, peyzaj va h.k. Dante biografiyasida o’sha davr Italiya ijtimoiy muhitining o’rni. Dante ijodining ilk davri. An'anaviy lirika. «Yangi hayot» Dante lirkasining yangi bosqichi sifatida. Asarning mazmuni va strukturasi. «Bazm», «Monarxiya xaqida» asarlari. «Xalq tili haqida» Dante estetik qarashlari va filologik nuqtai nazarining in’ikosi sifatida. «Ilohiy komediya» asarining o’rganilishi masalasi. Asar ilmiy, badiiy, falsafiy asoslarining shakllanishida Sharq badiiy tafakkurining o’rni. Dante va Bakochcho. Dante va Petrarka ijodi.

### **Ispaniyada Uyg'onish davri adabiyoti**

Ispan Uyg'onishining milliy va Antik asoslari. Ispaniya adabiy-ijtimoiy hayotida O’rta asrchilik an’analari. Bu davr adabiyotida epos, lirika, drama va folkloрning o’rni. Migel de Servantesning hayot yo’li va ijodi. «Don Kixot» jahon adabiyotining yuksak namunasi sifatida. Asarning ijtimoiy, milliy va biografik omillari. Asarning risar romanlari bilan munosabati. «Don Kixot»da telba, qiziqchi va ayyor obrazlari. Don Kixot va real voqyelik aro nomutanosiblik. Romanning fojiaviy qirralari. Roman haqida bildirilgan fikr-mulohazalar.

### **Fransiyada Uyg'onish davri adabiyoti**

15-16 asrlar Fransiyada ijtimoiy muhit. Falsafiy qarashlar xilma xilligi. Diniy qarashlarda mutaassiblik. Uyg'onish davri fransuz lirikasi, eposi va dramaturgiysi. Fransua Rable biografiyasi va ijodi. «Gargantuya va Pantagryuel» asari. Asar xususida M.Baxtin tadqiqotlari. Roman talqinida xalq kulgu madaniyatining o’rni. Asarda kinoya va komiklik. Tragik-komik talqin va «Gargantuya va Pantagryuel» asari. Asar strukturasining poetik mazmunni ochishdagi ahamiyati. Asardagi obrazlar. Asar uslubining o’ziga xosligi. Asar haqida M.Baxtin fikrlari.

### **Angliya Uyg'onish davri adabiyoti**

Ijtimoiy, falsafiy va estetik qarashlardagi yangilanishlar. Uyg'onish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. K.Marло ijodi. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Vilyam Shespirning hayot yo’li. Shespir ijodida lirika. Sonetlari. Dramaturgiysi. Shekspir drama asarlarini davrlashtirish. Shekspir dramalarida komiklik. Shekspir tragediyalarida qahramon, voqyelik, vaziyat, ramzlarning o’rni. Shekspir tragikomediyalari. «Qirol Lir»da masxara obrazi.

Asarda «Otalar va bolalar» muammosi talqini. Asar syujetida peyzaj unsurlarining psxologik vazifasi. Tragik obrazlar (Qirol Lir, Edgar) talqinida muallif pozisiyasi. «Qirol Lir»da «katarsis». Shekspir va Tolstoy, Shekspir va Sharq badiiy tafakkuri. «Gamlet» tragediyasida tragik qahramon talqini.

### **XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa adabiyoti**

Bu davr adabiyotining turli adabiy-falsafiy qarashlarga boy ekanligi. Turli adabiy oqim va yo'nalishlarning maydonga kelish sabablari. Ularning falsafiy va estetik omillari. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va adabiyot. XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa adabiyotida o'zaro va tashqi ta'sirlarning ahamiyati.

### **XVII asr nemis adabiyoti**

XVII asr nemis adabiyotida urush mavzusi talqini. 1618-1648 yillarda bo'lib o'tgan urushning Yevropa xalqlari ma'naviy, ijtimoiy hayotida tutgan o'rni. Ayn voqyealarning badiiy adabiyotda aks etishi. Nemis yozuvchisi Martin Opis(1597-1639)ning ijtimoiy-adabiy faoliyati. Uning «Nemis poeziyasi haqida» deb nomlangan kitobida urush izdan chiqargan milliy ma'naviyatni tiklash masalasining aks etishi. Bunda nemis xalqi folkloridan, Antik davr madaniyatidan foydalanish haqidagi fikr-mulohazalar. XVII asr nemis adabiyotida urushni qoralash mavzusi.

### **XVII asr Ispan adabiyoti**

Bu davr ispan adabiyotida uch adabiy yo'nalish: Uyg'onish realizmi, klassisizm, barokko. Uyg'onish realizmi va Lope de Vega ijodi. «Qo'zibuloq» realistik asar sifatida. Asarning syujeti, obrazlari. Veganing estetik qarashlari. Klassisizm estetikasining inkori, pyesa strukturasi haqida mulohazalari. Sonetlari, epik dostolari. Ispan klassisizm adabiyoti. Bu adabiyotning milliy ruhi va xalq maishiy hayoti bilan birikib ketganligi. Barokko oqimi:uning antik asoslari, o'tmish adabiyotini kult darajasiga ko'tarish, adabiyot xoslar uchun g'oyasi. Gongoro ijodi. Konseptizm estetikasi. Alonso Ledisma, Luis de Gevara, Baltasar Grassmanlar ijodi.

### **Fransuz adabiyoti**

Fransiyada klassisizm estetikasi va milliy madaniyat konsepsiysi. Fransuz klassisizmining falsafiy-esetik asoslari. (Dekart, Pyer Gasendi, Molerb, Bualo qarashlari). Kornel, Rasin, Molyerlar ijodida klassisizm an'analari. Klassisizm estetikasining asosiy tamoyillari: uch birlik, adabiy janrlar masalalari. Sharq va G'arb klassisizmi qiyosi: umumiy va farqli jihatlar.

### **Ingliz adabiyoti**

Ingliz ijtimoiy-madaniy hayotida uyg'onish gumanizmi va hayot dialektikasi. F.Bekon, E.Spenser, V.Shekspir estetik qarashlari talqini. B.Jonson, Milton, D.Uinstellilar ijodida «metafizik maktab» an'analari. Idealistik motivlar va risarlik an'analari talqini. 1948 yildan keyingi «yangi dvoryanlar» publisistik prozachiligi (Jon Drayden-1631-1700, Uilyam Uicherli-1642-1716, Jon Benyan-1628-1688, Semyuel Betler-1612-1681, Jon Milton-1608-1674).

### **XVII-XVIII asrlar italyan adabiyoti**

Jambatist Mariko (1569-1625) va «marimiza» oqimi. Italian adabiyotida badiiy shakl soddaligi yo'lidagi harakatlar. Tarkvato Tassoga qaytish. Fulvio Testi ijodida ijtimoiy mavzu talqini. Vinchenko Filikay(1642-1707)ning diniy she'riyati.

Alessandro Tasoni (1565-1635)ning satirik she'rlari: «Turli fikrlar», «Petrarka she'riyati haqida o'ylar», «O'g'irlangan chelak» asarlari. XVIII asr italyan komediyanavisligi. Galdoni (1707-1793), Gossi (1722-1806)lar ijodi.

### **XVIII asr Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti**

Nemis ma'rifatchiligi. Milliy birlik g'oyasi. I.Kantning «Erkin tafakkur» falsafasi. Fixtening subyektiv idealizmi. Gegl falsafasi. Uning «Ruh fenemenologiyasi» va «Mantiq ilmi» asarlari. Nemis klassik falsafaining asosi sifatida. Nemis ma'rifatparvar adiblari: Kristof Gotshed (1700-1766), Fridrix Gotlib Klobshok (1724-1803), Vinkelman (1717-1768), Lesing (1729-1781).

### **Fransuz ma'rifatchiligi**

Nazariy-estetik asoslari: Volterning «Did saroyi», Didroning «Aktyor haqida paradoks» asarlari. Adabiyotda ijobiy qahramon, ijtimoiy tarbiya, milliy madniyat masalalari. Teatrchilik harakatlari: Volter, Didro, Mersye, Bomarshelar komediyalari. Sharq va G'arb ma'rifatchiligi masalasi.

### **Yevropa sentimentalizmi estetikasi**

David Gartli, J.J.Russo, Joroj Berkli, David Yumlarning falsafiy qarashlari. Sentimental estetikaning o'ziga xos jihatlari. E.Yung, J.Tomson, L.Sternlar ijodi.

Gyotening «Yosh Verterning iztiroblari» asarida sentimental falsafa talqini.

XVIII asrning 70-80-yillaridagi «Bo'ron va tazyiq» harakati va F.Shiller ijodi. Harakatning ijtimoiy tabiat. Klengerning «Bo'ron va tazyiq» pyesasi shtyurmerlik harakatining asosi sifatida. Ijtimoiy va hissiy erkinlik masalasi. Shilerning «Qaroqchilar», Byurgerning «Lenora», Gyotening «Korinflik kelinchak» asarlarida shtyurmerlik g'oyalari talqini. Shillerning falsafiy va nazariy estetik qarashlari. «Makr va muhabbat», «Don Karlos», «Vallenshteyn» asarlari. Shtyurmerlik harakatida xalqchilik g'oyasi.

### **XIX asr nemis va ingliz romantizmi**

Yevropa romantizmining ikki ko'rinishi: idealistik va taraqqiyat parvar romantizm. Ularning ijodida xalq va milliy birlik tamoyili. Klassisizmga salbiy munosabat, nemis romantizmi: A.Shamiso, A.Gofman, aka-ukalar Grimlar. Ingliz romantizmi: Bayron ijodi. Nemis romantizimida: «Ko'l maktabi» (Vordsvord, Sadti, Kolrij), inqilobiy romantizm (Bayron, Shelli), «London romantiklari» oqimlari. Amerika tarixiy romanichiligi. Fenemor Kuper ijodi romantizm va realizm sintezi.

### **Yevropa tanqidiy realizmi**

P. Beranje, Stendal, P. Marime, Balzak va Charlz Dikkenslar ijodida jamiyat va shaxs muammolarining badiiy talqini. XX asr birinchi yarmi Yevropa va AQSh tanqidiy realizm adabiyoti. Gi de Mopassan tanqidiy realizmi. Nemis adiblari Tomas Mann, Bernard Shoular ijodida relistik talqin tamoyillari. AQSh adabiyotida satira va humor. Mark Tven ijodi. Jek London ijodida Spanser va Nisshe falsafasi talqini. R.Rollan (Fransiya), Lui Aragon (Fransiya), E.Xenimguey, T.Drayzer, (AQSh), Anna Ziggers (Germaniya), Jeyms Oldrij (Angilya)lar ijodida ijtimoiy falsafiy, maishiy muammolarning yoritilishi.

### **Realizm estetikasi**

Ijtimoiy-falsafiy asoslari. Fransuz realistik adabiyoti. P.Elyuar, M.Riffo, P.Shobbarlar ijodida «fojeiy gumanizm» motivlari. 50-yillar ispan adabiyotida

«tremendizm» yo'nalishi: K.Seli, K.Laforet ijodi. Ispan «Yangi romanchiligi»: X.Goytsolo, A.Matutelar ijodi.

### **Naturalizm estetikasi**

Naturalizm estetikasi asosida Ogyust Kont va Ippolit Ten falsafiy qarashlari yotishi. Shaxs faoliyatida biologik, genetik omillarning ustun qo'yilishi. Naturalistik badiy tasvirning o'ziga xosliklari. Naturalistik adabiyot vakillari: aka-uka Gonkurlar, Emil Zolyalar ijodi.

### **Jahon modernizm adabiyoti**

Modernizm estetikaning tarixiy ildizlari va ijtioiy-falsafiy omillari. Jahon modernizmining adabiy, falsafiy yo'nalishlari: simvolizm, futurizm, dadaizm, syurrealizm, abstraksionizm, ekzistensializm, absurdizm. Fransuz modernizmi. Inson hayotining ekzistensial talqin etilishi. J.-P. Sartr, A.Kamyu, S. de Bouvarlar ijodi. 50-yillar fransuz «yangi romanii»: A.Rob-Griye, N.Sorrot, M.Byutor asarlari. Fransuz «absurd teatri»: E.Ionesko, S.Bekket, A.Adamovlar ijodi. 60-80-yillar ispan profronkist romanlari: B.Kassayesa, X.Goytsolo, A.Mushetilar ijodi. Ayres Merdok, Uilyam Goldinglar ingiliz modern adabiyoti namoyondalari sifatida. Nemis modern adabiyotida metofizik falsafa asosida maydonga kelgan «metaadabiyot» (Ernst Yunger, Arno Shmid), fransuz modernizmi (Martin Valzer), freydizm qarashlarning badiiy talqinlari (S.Sveyg). AQSh modern adabiyoti: ekzitensializm, freydezm, dzen-buddizm g'oyalari: U.Stoyron, R. Elisson, D.Selenjer, U.Folknerlar ijodi. Postmodernizmning jahon adabiyotida tutgan o'rni. Madaniy-falsafiy omillari. Timoti Uenter va uning postmodernizmga doir qarashlari.

### **Hind, Xitoy va Yapon adabiyoti**

Mifologik tafakkur, folklor, falsafiy qarashlar: Krishna ta'limoti, buddizm, konfusiylik. Bxartrixari, Tagor va Nazrul Islomlar ijodi. Yaponiyada Takamasuning maishiy dramlari. Basyo va Saykaku ijodi. K.Abe, D.Yosyuki, S.Nakamura, S.Endolar ijodi. Kavabata Yasunari ijodida «yapon turmush tarzi» ifodasi.

### **“Jahon adabiyoti muammolari” fani bo`yicha ma`ruza mashg`ulotlarining kalendar tematik rejasি**

<b>Nº</b>	<b>Ma`ruza mavzulari (barchasi)</b>	<b>soat</b>
1.1	Kirish. «Jahon adabiyoti muammolari» fanining predmeti, maqsadi vazifalari.	2
1.2	Jahon adabiyoti tarixida mifologiyaning o'rni	2
1.3	Antik davr adabiyoti: epos	2
1.4	Antik davr dramasi	2
1.5	Tarixiy va falsafiy proza	2
1.6.	Rim adabiyoti	2
1.7	O`rta asrlar adabiyoti	2
1.8	Jahon xalqlari uyg`onish adabiyoti. Italiya, Ispaniya, Fransiya va Angliyada uyg`onish davri adabiyoti	6
1.9	XVII-XVIII asrlar g`arbiy Yevropa adabiyoti: nemis, fransuz, ispan, ingliz adabiyoti	6
1.10	XVIII asr Yevropa ma`rifatchilik adabiyoti	2
1.11	XIX asr nemis va ingliz romantizmi	4
1.12	Yevropa tanqidiy realizmi	2
1.13	Realizm estetikasi	2

1.14	Naturalizm estetikasi	2
1.13	Jahon modernism adabiyoti	2
1.14	Hind, Xitoy va Yapon adabiyoti	4
	Jami	40

### **Amaliy mashg`ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular**

Amaliy mashg`ulotlar talabalarda badiiy tahlil, ilmiy-nazariy muqoyassa, badiiy asarga problematik yondashuv malakasini shallantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy davrlar mohiyati, poetik o`ziga xosligini anglashda amaliy-nazariy asos bo`lib xizmat qiladi. Amaliy mashg`ulotlarda talabalar jahon adabiyoti muammolari to`g`risida amaliy ko`nikma va malaka hosil qiladilar.

Amaliy mashg`ulot mavzulari:

#### **«Qadim Gresyaning afsona va miflari», «Hind miflari» asarlari tahlili.**

Mif va jahon adabiyoti. Davrlashtirish va adabiy davrlarga xos yetakchi jihatlar va muammolar. Adabiy oqimlar va ijodiy metodlar. Jahon adabiyoti tarixining manbaviy qamrovi va tipologiyasi muammolari.

#### **Gomerning «Ilda» va «Odiseya» asarlarida mifologik syujetlarning o`rni.**

Gomerning “Iliada” asari. Uning o`ziga xos xususiyatlari. Asarda obrazlar tizimi. “Odisseya” asari. Obrazlar va unda mifologianing o`rni. Mifologik syujet xususida tushunchalar.

#### **Antik davr Sharq va G`arb lirkasi.**

